

E.E.BERTELS IJODIDAGI TASAVVUF TARIQATINING TALQINI

Turobov Bekpulat Nusratullayevich

*Samarqand davlat chet tillar instituti,
Gumanitar fanlar va axborot texnologiyalar
kafedrasi dotsenti, PhD.*

Mirsaminova Guzalxon Mahmudjonovna

*Akademik Bobojon G'ofurov nomidagi Xo'jand davlat universitetining
xalqaro aloqalar bo'limi boshlig'i, dotsenti*

Annotatsiya: Mazkur kichik ilmiy tadqiqotda E.E.Bertels ijodidagi tasavvuf tariqatining talqini haqida so'z yuritiladi va uning asosiy bosqichlari batafsil yoritib beriladi. So'fiy shariat qonun-qoidalarini bajarishi kerak ekanligi, ularga amal qilmasdan keyingi bosqichga o'tish mumkin emasligi xaqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Shu bilan birga, fano va nirvana o'rtasidagi g'oyaviy bog'liqlikni isbotlaydigan asosli dalillarning ham ilmiy tasdig'i keltirilgan.

Kalit so'zlar: E.E.Bertels, Islom, So'fiy, Halol, Boqiylik, Baqo, Fono, Vara, Faqir, Tasavvufshunos.

Tasavvufda inson ma'naviy kamolotining asosiy bosqichlari ko'rsatilgan. Birinchi bosqich-shariat bo'lib, unga binoan ilohiy qonunlarning barchasi so'zsiz bajarilishi shart. E.E.Bertels buni tasavvufga kirmaydi, deb hisoblaydi, chunki har bir musulmon unga amal qilishga majbur. So'fiy ham shariat qonun-qoidalarini bajarishi kerak, chunki ularga amal qilmasdan keyingi bosqichga o'tish mumkin emas. Islomning asosiy aqidalarini egallangandan keyin inson oldida tariqat ("yo'l") ochilishi mumkin.

Tariqatning boshi, birinchi manzil, odatda, tavba ("qilmishiga pushaymon bo'lish") bo'lib, tasavvufda bu tushuncha yanada chuqurroq ma'noga ega bo'ladi.

Ikkinchi bosqich – ulamolar tomonidan vara ("ehtiyotkorlik") deb tan olinadi. Halol ("ruxsat etilgan") va harom ("man etilgan")ni o'ta sinchkovlik bilan farqlash bu bosqichning eng xarakterli xususiyatidir.

Uchinchi bosqich – vara ("ehtiyotkorlik")ning davomi bo'lib, tabiiy ravishda zuhd ("nafsni tiyish")ga olib keladi. Buning belgilari gunoh, keragidan ortiq narsadan, xudodan uzoqlashtiruvchi hamma o'tkinchi ishlardan tiyilishdir. X-asrga kelib zuhd tushunchasi hatto har qanday xohish va mayl uyg'otuvchi barcha foniy harakatni tark etishgacha bo'lgan narsalarni o'z ichiga ola boshladi.

To'rtinchi bosqich – faqir ("qashshoqlik")likdir. Bu - o'zini ixtiyoriy ravishda muhtojlikka mahkum etish, doimiy tiyilish natijasida dunyoviy noz-ne'matlardan voz kechishdir.

Beshinchi bosqich – zohidlik va faqirlikning hosilasi sifatida vujudga keladi. Bu sabr bo'lib, so'fiyga xos asosiy xususiyatdir. Sabrning mohiyati shundan iboratki, u qiyin.



kechadigan barcha narsalarni itoatkorlik bilan qabul qilishdan iboratdir. E.E.Bertels Junayd Bog‘dodiyning sabr - achchiq va yoqimsiz narsani norozilikni ifodalamasdan yutishdan iboratdir, degan fikrini keltiradi.

Oltinchi bosqich - tavakkul (“xudoga ishonish”)dir. Uning dastlabki davrida kishi o‘zini ertangi kun tashvishlaridan soqit qiladi, Unga ayni dam bilan qanoatlanish xos. Bunday odam xudo bugun qanday g‘amxo‘rlik qilgan bo‘lsa, ertaga ham shunday bo‘ladi deb umid qiladi. Demak, so‘fiy hayotida bir lahza muhimdir, ya‘ni o‘tgan narsa endi yo‘q, kelajak esa hali kelmagan.

Ettinchi bosqich – rido (“itoat”, “itoatkorlik”) hisoblanadi. Bunda taqdirga ishonish asosiy rol o‘ynaydi. Bu shunday holatki, unda kishi taqdirning har qanday zarbasiga chiday oladi va hatto xafagarchilik haqida o‘ylamaydi ham. Natijada uning uchun borliq o‘z voqeligini yo‘qotadi.⁸²

Yuqorida qayd qilinganlarni E.E.Bertels maqomlar deb ataydi. Uningcha maqomlar solihning tinimsiz harakatlari, bajargan mashqlari asosida qo‘lga kiritiladigan barqaror holatlardir. Olim hol maqomdan farqli o‘laroq solihning harakatlari bilan qo‘lga kiritilmaydi degan fikrni bildiradi. Hol yuqoridan yuborilgan, qanday tez kelgan bo‘lsa, shunday g‘oyib bo‘ladigan ilohiy bir marhamatdir. E.E.Bertels tasavvuf nazariyotchilari tomonidan ko‘rsatilgan holning tasnifini keltiradi: 1) qurb (“yaqinlik”); 2) muhabbat (“muhabbat”); 3) xavf (“ko‘rqish”); 4) raja (“umid”); 5) shavq (“ehtiros”); 6) uns (“do‘stlik”); 7) itma’nina (“ruhiy xotirjamlik”); 8) mushohada (“mushohada qilish, xayolotga cho‘mish”); 9) yaqin (“ishonch” - ishonch bilan (dadil) harakat qilish).⁸³

Ba‘zan bu holatlarga fano ham kiritiladi. Ammo aksariyat tasavvuf nazariyotchilari fanoni so‘nggi manzil emas deb hisoblaydilar. Fanodan keyin uning mantiqiy davomi sifatida baqo (“abadiyat”) keladi. Boqiylik (abadiy yashash)ni tan olish, solih erishishi mumkin bo‘lgan holatlarning eng oliysidir. Fano tushunchasi IX-asrning oxiridan boshlab, tasavvufda amaliy ahamiyat kasb etdi. Buning sababi shundaki, tasavvuf maktablarining ko‘pchiligida fano tariqatga kirgan solihning asosiy maqsadi sifatida e’tirof etila boshlandi. Bu mutafakkirlarning nuqtai nazaricha fano o‘tkinchi borliqning abadiylikka o‘tishi, ilohiylik bilan insonning birlashib ketishi (lohut va nasut)dir. Alloh bilan birlashganini his qilgan odam barcha dunyoviy narsalarga ehtiyoj so‘nganini va o‘zidan voz kechganini sezadi. Bunda inson “men”ining Allohga g‘arq bo‘lganligi, ya‘ni fano fillo namoyon bo‘ladi. E.E.Bertels ham bunda mantiqiy izchillik borligini e’tirof etadi. Baqo - abadiylik, manguqlikdir. Baqo bosqichi solihning ruhini yuksaltirish bosqichi hisoblanadi. Tasavvufshunos olim G.Navro‘zova nuqtai nazaricha, tasavvufda komil insonni

⁸²Бертельс Е.Э. Сўфизм ва тасаввуф адабиёти. Рус тилидан Ибодулла Мирзаев таржимаси. Т.-“Ўзбекистон Миллий энциклопедияси”. Давлат илмий нашриёти. 2005. Б.63- 66.

⁸³Бертельс Е.Э. Сўфизм ва тасаввуф адабиёти. Рус тилидан Ибодулла Мирзаев таржимаси. Т.-“Ўзбекистон Миллий энциклопедияси”. Давлат илмий нашриёти. 2005. Б.67.



tarbiyalash me'yorlari mavjud bo'lib, U fanodan baqo holatigacha kamolotga borish yo'llarini ko'rsatadi.⁸⁴

Sharqshunos olim E.E.Bertelsning e'tirof etishicha, G'arb olimlari fanoning genezisini buddaviylikdagi "nirvana"ga bog'liq deb, hisoblaydilar. Haqiqatdan ham, tasavvufdagi fano bilan buddaviylikdagi nirvana orasida o'xshashlik bor degan g'oyani G'arb olimlaridan Reynold Nikolson, Bloxet, R.Dozi va Alfred fon Kramerlar ilgari suradilar.⁸⁵ G'arb olimlari da'volarining asossizligini isbotlash maqsadida E.E.Bertels bir qancha dalillarni keltiradi. Birinchidan, shu davr tasavvuf mutafakkirlarining hind falsafiy ta'limotlari to'g'risida Etarli darajada aniq tasavvurga ega bo'lganligi isbotlanmagan, ikkinchidan, "nirvana", "sansara g'ildiragi" haqida so'fiy olimlar hech narsa demaganlar, uchinchidan, tasavvufdagi fano haqidagi ta'limot bilan budda ta'limoti o'rtasida hech qanday umumiylik mavjud emas.⁸⁶

E.E.Bertels fikrlarini I.P.Petrushevskiy qarashlarining mantiqiy davomi deb hisoblash mumkin. Bu olim ham, fano va nirvana tushunchalarida yuzaki o'xshashlik bo'lishi mumkin degan xulosaga keldi. Chunki buddaviylikda tasavvuf ta'limotidagi tajalliy (Allohning tajalliysi-Allohning jilvalanishi) va insonning Xudo bilan ixtiyoriy birlashuvi g'oyalari mavjud emas. Tasavvufda esa buddaviylikdagi nirvana asosi bo'lgan qayta tug'ilish to'g'risidagi ta'limot yo'q.⁸⁷ Shuning uchun ko'pgina Sharq va G'arb tasavvufshunoslari fano va baqo tushunchalari islom dini negizida paydo bo'lgan degan fikrni bildiradilar. Shunga binoan, fano va nirvana o'rtasidagi g'oyaviy bog'liqlikni isbotlaydigan asosli dalillar hozirgacha ilmiy muomalaga kiritilgan emas, deb aytish mumkin.

Fano bosqichini egallash ham har kimga nasib qilmaydi. Inson foniy bo'lish uchun tasavvuf yo'liga kirishi shart. Tasavvufshunos Sultonmurod Olim E.E.Bertels fikriga asoslanib, fano-tariqatning oxiri, haqiqatning esa boshlanishidir. So'fiyning orzusi, niyati fano pog'onasiga ko'tarilib, foniy bo'lish hisoblanadi. Bu shundan dalolat beradiki, birinchi pog'onani chetlab, ikkinchi pog'onani egallash, ya'ni boqiy bo'lish tasavvuf mantig'iga zidligini ko'rsatadi.⁸⁸

⁸⁴Наврўзова Г. Хожагон тариқатида комил инсон тарбияси масалалари.//Абдухолиқ Гиждувоний ва тасаввуф. Илмий конференция маърузалари тезислари. Тошкент. 2003. Б. 11.

⁸⁵Усмон Турар. Тасаввуф тарихи. Т.: «Истиқлол», 1999. Б. 34.

⁸⁶Бертельс Е.Э. Сўфизм ва тасаввуф адабиёти. Рус тилидан Ибодулла Мирзаев таржимаси. –Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти. 2005. Б. 53.

⁸⁷Касымова З.И. Истоки, социальная сущность и причины распространения ислама.//Из истории суфизма: источники и социальная практика. Под редакцией академика АН РУз М.М. Хайруллаева. Ташкент. Из-во «Фан» 1991. Б. 9.

⁸⁸Султонмурод Олим. Ишқ, ошиқ ва маъшук. Тошкент. Ўзбекистон Республикаси фанлар Академияси "Фан" нашриёти. 1992. Б. 21.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Бертельс Е.Э. Сўфизм ва тасаввуф адабиёти. Рус тилидан Ибодулла Мирзаев таржимаси. Т.-“Ўзбекистон Миллий энциклопедияси”. Давлат илмий нашриёти. 2005. Б.63- 66.
2. Бертельс Е.Э. Сўфизм ва тасаввуф адабиёти. Рус тилидан Ибодулла Мирзаев таржимаси. Т.-“Ўзбекистон Миллий энциклопедияси”. Давлат илмий нашриёти. 2005. Б.67.
3. Бертельс Е.Э. Сўфизм ва тасаввуф адабиёти. Рус тилидан Ибодулла Мирзаев таржимаси. –Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти. 2005. Б. 53.
4. Наврўзова Г. Хожагон тариқатида комил инсон тарбияси масалалари.//Абдухолик Гиждувоний ва тасаввуф. Илмий конференция маърузалари тезислари. Тошкент. 2003. Б. 11.
5. Усмон Турар. Тасаввуф тарихи. Т.: «Истиқлол», 1999. Б. 34.
6. Касимова З.И. Истоки, социальная сущность и причины распространения ислама.//Из истории суфизма: источники и социальная практика. Под редакцией академика АН РУз М.М. Хайруллаева. Ташкент. Из-во «Фан» 1991. Б. 9.
7. Султонмурод Олим. Ишқ, ошiq ва маъшук. Тошкент. Ўзбекистон Республикаси фанлар Академияси “Фан” нашриёти. 1992. Б. 21.